

Nemis tili fanidan test topshiriqlarini bajarish bo'yicha abituriyentlar uchun ayrim tavsiyalar

1 - test topshirig'i

Setzen Sie das Pronomen in der richtigen Form ein:

Er kauft ... immer praktische Dinge!

- A) sich
- B) mich
- C) ihn
- D) sie

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.1.2. bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.23 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan birinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Bu topshiriqni bajarish uchun kishilik va o'zlik olmoshlarining *Dativ* va *Akkusativ* kelishiklaridagi shakllarini farqlay olish talab etiladi. *Mich, ihn, sie* kishilik olmoshlari uchta variantda *Akkusativ* kelishigida to'ldiruvchi vazifasida turganligi uchun, tabiiyki, *kaufen* fe'liga mos kelmaydi. *Sich* o'zlik olmoshi esa 3-shaxs birlikda *Dativ* va *Akkusativ* kelishiklarida yagona shaklga ega.

To'g'ri javob: A) sich

Manba: N.Suxanova "Assalom Deutsch", 7 sinf darsligi, 14 bet. Toshkent 2002.

2 - test topshirig'i

Setzen Sie die passende Konjunktion ein:

Ich habe ihn gefragt, ... er heute die Prüfung gut bestanden hat.

- A) dass
- B) ob
- C) wenn
- D) indem

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.2.2. bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.6 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan ikkinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Bu topshiriqda ergash gapda ishlatiladigan mos bog'lovchini topish talab qilinmoqda. Buning uchun biz bosh gapga mos keluvchi *fragenwas?* savolini berishimiz kerak. Ushbu savolga *dass* yoki *ob* bog'lovchili ergash gaplar javob bera oladi. *Fragen* fe'li savolga to'g'ri javob bo'la oladi va undan keyin *ob* bog'lovchisini tanlash kerak bo'ladi.

To'g'ri javob: B) ob

Manba: N. Suxanova "Assalom Deutsch", 8 sinf darsligi, 125 bet. Toshkent 2010.

3 - test topshirig'i

Ergänzen Sie den Satz.

In vielen Ländern ist es schwer, ...

- A) um eine Arbeitsstelle zu finden
- B) eine Arbeitsstelle zu finden
- C) statt eine Arbeitsstelle zu finden
- D) ohne eine Arbeitsstelle zu finden

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.2.3 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.8 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan ikkinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Bu topshiriqda berilgan infinitivli tuzilmalarning qay biri gapga mos tushishini aniqlash talab etiladi. Bosh gapda *es ist schwer* birikmasi bor. Bunday turdagi birikmalardan keyin ergash gapda *Infinitiv mit zu* tuzilmasi ishlatiladi.

To'g'ri javob: B) eine Arbeitsstelle zu finden

Manba: N. Suxanova "Assalom Deutsch", 8 sinf darsligi, 125 bet. Toshkent 2010.

4 - test topshirig'i

Setzen Sie das Verb in der richtigen Form ein:

Nachdem ich meine Lehre ..., arbeitete ich für zwei Jahre bei Siemens.

- A) beendet hatte
- B) habe beendet
- C) beendet habe

D) beendete

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 1.2.2 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 1.1.6 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan ikkinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Ushbu topshiriqni to'g'ri bajarish uchun ergash gapga mos keluvchi fe'l shaklini qo'yish talab etiladi. Bosh gap va ergash gapdagi fe'llar o'tgan zamonda berilgan, holbuki ergash gapdagi ish-harakat bosh gapdagi ish-harakatdan oldinroq sodir bo'lgan. Shuning uchun bu yerda quyidagi zamonlar moslashuvi sodir bo'ladi : *Plusquamperfekt / Präteritum*.

To'g'ri javob: A) beendet hatte

Manba: M. Dadaxojayeva "Deutsch I". Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning 1 kurs o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma, 42 bet. Toshkent 2008.

5 - test topshirig'i

Ushbu keltirilgan topshiriq abituriyentlar tayyorgarligi darajasiga qo'yilgan talablar kodifikatorining birinchi bo'limidagi fan mazmunining 4.1.2 bo'lim kodiga, ikkinchi bo'limda keltirilgan o'zlashtirish zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va talabning 2.1.5 talab kodiga hamda test topshiriqlari tafsilotida keltirilgan uchinchi murakkablik darajasidagi savolga mos keladi.

Topshiriqning bajarilishi:

Ushbu test topshirig'i bitta matn bo'yicha tuzilgan to'rtta topshiriqni o'z ichiga oladi. Mazkur topshiriqlarni bajarishda matndagi har bir so'zni tushunish emas, balki ularning orasidan kalit so'zlarni topa olish va o'qilgan matnning asosiy mazmunini tushuna olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, ifodalangan voqealarning vaqt, sabab-natija jihatdan o'zaro bog'liqligini aniqlay olish, keltirilgan dalil va voqealar jarayonining rivoji va oqibatlarini taxmin qila olish, tasvirlangan voqea-hodisalarning umumiy ko'rinishini tasavvur qila olish ham sizga ushbu topshiriqlarni to'g'ri bajarishingizda yordam beradi.

Lesen Sie den Text und lösen Sie dazu die Aufgaben (5-8).

Es gibt jeweils nur eine richtige Lösung A, B,C oder D.

Gehörlose oder hörgeschädigte Menschen verständigen sich untereinander in der

Gebärdensprache. Dabei handelt es sich um eine Sprache, die Gestik, Mimik, Körperhaltung und lautlos gesprochene Worte zu sprachlichen Zeichen kombiniert. Weltweit gibt es über 130 unterschiedliche Gebärdensprachen, wobei Dialekte noch nicht mitgezählt sind. Allein in der Schweiz gibt es 12 verschiedene Dialekte. Doch weil alle Versionen der Sprache ja auf Gebärden beruhen und nicht auf nationalsprachlichen Wörtern, ähneln sich viele Elemente, sodass sich nicht-hörende Menschen im Ausland viel leichter untereinander verständigen können als Hörende.

5. Gebärdensprache . . .

A) ist regional und bundesweit universell.

B) umfasst auch laut gesprochene Worte.

C) wiedergibt sprachliche Zeichen in Mimik und Gestik.

D) ist eine Sprache, in der sich die Menschen mit gesprochenen Worten verständigen.

Izoh: To'g'ri javobni topish uchun «Dabei handelt es sich um eine Sprache, die Gestik, Mimik, Körperhaltung und lautlos gesprochene Worte zu sprachlichen Zeichen kombiniert.» gapiga e'tiboringizni qarating. Chunki mazkur gapdagi tagiga chizilgan so'zlar „Gebärdensprache“ jumlasiga mazmunan mos keladi.

To'g'ri javob: C) wiedergibt sprachliche Zeichen in Mimik und Gestik.

6. Es gibt . . .

A) über 130 abwechslungsreiche Gebärdensprachen.

B) mehr Gebärdensprachen als gesprochene Sprachen.

C) Gebärdensprachen, die besser für die Kommunikation sind.

D) viele Varianten der Gebärdensprache, die keiner benutzt.

Izoh: «Weltweit gibt es über 130 unterschiedliche Gebärdensprachen ...» gapidagi tagiga chizilgan birikma «abwechslungsreiche Gebärdensprachen» birikmasiga sinonim bo'la oladi.

To'g'ri javob: A) über 130 abwechslungsreiche Gebärdensprachen.

7. Die Dialekte der Gebärdensprache . . .

A) existieren nur in der Schweiz.

B) spielen keine große Rolle.

C) sind an sich sehr ähnlich.

D) sind schon in der Schweiz vielfältig.

Izoh: «Allein in der Schweiz gibt es 12 verschiedene Dialekte» gapidagi tagiga chizilgan birikma «sind vielfältig» birikmasiga mazmunan mos keladi.

To'g'ri javob: D) sind schon in der Schweiz vielfältig.

8. Nicht-hörende Menschen verstehen einander oft gut, weil . . .
- A) die Gebärdensprache nicht nur auf nationale Sprachen beruht.
 - B) es genügend Dialekte der Gebärdensprache gibt.
 - C) Gestik und Mimik und Körperbewegung in allen Sprachen gleich sind.
 - D) alle Sprachen auf gleichen Gebärden beruhen.

Izoh: «Doch weil alle Versionen der Sprache ja auf Gebärden beruhen und nicht auf nationalsprachlichen Wörtern . . .» gapidagi tagiga chizilgan so'zlar «die Gebärdensprache nicht nur auf nationale Sprachen beruht» jumlasiga mos keladi.

To'g'ri javob: A) die Gebärdensprache nicht nur auf nationale Sprachen beruht.